

BUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Qahramanova Marjona

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo‘lib, davlat iqtisodiyotini samarali boshqarish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar tahlil qilingan. Budget mablag‘larining oqilona va samarali sarflanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki korrupsiyani kamaytirish va davlatning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maqolada budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishda shaffoflikni oshirish, davlat xaridlarini adolatli va raqobatbardosh asosda amalga oshirish, tender tizimini rivojlantirish, natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish tizimini joriy qilish kabi choralar muhimligi ta’kidlangan. Ayniqsa, davlat xarajatlarini ochiq platformalar orqali kuzatish, fuqarolarni va nodavlat tashkilotlarni bu jarayonlarga jalb qilish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Budget, budget mablag‘lari, shaffoflik, korrupsiya, davlat xaridlari, tender, budgetlashtirish, davlat molivaviy nazorat, molivaviy nazoratning subyektlari, molivaviy nazorat obyektlari, molivaviy nazorat ta’moyillari.

Annotation: This article describes the issues of improving the mechanism of using budget funds, and analyzes the factors that are important in the effective management of the state economy and the improvement of social well-being. Reasonable and effective spending of budget funds not only ensures economic stability, but is also a decisive factor in reducing corruption and strengthening the social responsibility of the state. The article emphasizes the importance of measures such as increasing transparency, implementing public procurement on a fair and competitive basis, developing a tender system, and introducing a result-oriented budgeting system in improving the mechanisms for using budget funds. In particular, issues of monitoring public spending through open platforms,

strengthening public control by involving citizens and non-governmental organizations in these processes are analyzed.

Keywords: Budget, budget funds, transparency, corruption, public procurement, tender, budgeting, state financial control, subjects of financial control, objects of financial control, principles of financial control.

KIRISH

Budget mablag‘lari har bir davlat iqtisodiyotining muhim asosi bo‘lib, ularning samarali boshqarilishi va maqsadli ishlatilishi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish dolzARB masala hisoblanadi. Budget mablag‘lari davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hisoblanadi. Davlat tomonidan to‘plangan soliqlar va boshqa daromadlar davlat tomonidan ajratilgan xarajatlar orqali qaytariladi. Bu mablag‘lar asosiy ijtimoiy dasturlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, mudofaa, infratuzilma va boshqa sohalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Budget mablag‘larini to‘g‘ri boshqarish, ulardan samarali va shaffof foydalanish davlatning iqtisodiy rivojlanishi va fuqarolarning farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, budget mablag‘larining oqilona taqsimlanishi va nazorati kerakli darajada tashkil etilishi zarur. Bugungi kunda budget mablag‘laridan foydalanishda bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar resurslar yetarli darajada samarali ishlatilmasligi, ortiqcha xarajatlar va korrupsiya xavflariga bog‘liq. Budget mablag‘larining noto‘g‘ri taqsimlanishi davlat moliyaviy resurslarining isrof bo‘lishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Budget mablag‘laridan samarali foydalanish davlat moliyasini boshqarishning asosi bo‘lib, resurslarni ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni maksimal darajada taqsimlashni ta’minlaydi. Biroq, samarasizlik, korruptsiya va noto‘g‘ri boshqaruvin ko‘pincha byudjet fondidan foydalanish samaradorligiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu tezis byudjet mablag‘laridan foydalanishni tartibga soluvchi mavjud mexanizmlarni o‘rganish, asosiy muammolarni aniqlash va tizimni takomillashtirish bo‘yicha echimlarni taklif qilishga qaratilgan. Tadqiqot, ayniqlasa, davlat xarajatlarining shaffofligi va hisobdorligiga bo‘lgan talabning ortishi

sharoitida dolzarbdir. Davlat budgeti iqtisodiyot rivojlanishining turli boqichlarida byudjet siyosatini amalga oshirish quroli, mo‘ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larining asosiy manbai hisoblanadi. Budget mablag‘laridan foydalanish yuzasidan davlat moliyaviy nazorati moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat moliyaviy siyosatini ifodalaydi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushirishni maksimallashtirish va byudjet mablag‘laridan samarali hamda oqilonaf oydalanishni ta’minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya, byudjet, soliq intizomiga yetarli darajada rioya qilinmayotganligi va byudjet mablag‘larini maqsadsiz ishlatilishida ko‘p sonli holatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirishning zarurligini ko‘rsatmoqda. Byudjet mablag‘larini sarflashda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni kelib chiqish sababi moliya hamda nazorat taftish idoralari xodimlarining ular oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa-byudjet intizomiga rioya etishni ta’minlashga mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Professorlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy sub’yektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunshilikka rioya etilishi, moliyaviyxo‘jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o‘z ishiga oladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo‘lishining baholashni o‘z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o‘zining analistik yo‘nalishiga ega.¹ O‘zbekistonlik iqtisodchi M.M.To‘laxo‘jaevanining fikricha “Moliyaviy nazorat – davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustakil jamoat organlari tomonidan xukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat

¹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O‘quv qo‘llanma.T.:“Iqtisod-moliya” 2008 y. 316 b.

tizimidir. Davlat byudjetini shakllantirish va sarflashdagi zaxiralarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik printsiplaridan chetga og‘ish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi. Nazorat maksadi–tuzatish choralarini ko‘rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzishlarning oldini olishdan iborat². Davlat moliya tizimi va budjetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan iqtisodiyotchilar tomonidan o‘rganila boshlangan. G‘arb olimlari tomonidan. Klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U.Petti, A.Smit D.Rikardo tomonidan davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o‘rni va vazifalari yoritilgan. Ular davlatni iqtisodiyotga minimal ishtiroki tarafдорлари bo‘lib, davlatning asosiy vazifalari mudofaa va ijtimoiy masalalar deb belgilaganlar. Bozor munosabatlari esa, ularning fikricha, talab va taklif qonuniga asosan iqtisodiy rivojlanish muvofiqlashadi. Yalpi talab darajasini pasayishida davlat aralashish masalalari birinchi marta A. Marshallni ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Iqtisodiyotga davlat aralashuvi, jumladan budget tomonidan uni barqarorlashtirish masalalari J.M.Keynsni ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritilgan.³

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budget mablag‘lari davlat tomonidan to‘plangan soliqlar, bojxona daromadlari, boshqa manbalar va davlat qarzlari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag‘lar davlat tomonidan ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, ijtimoiy himoya, mudofaa va boshqa sohalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi. Mablag‘larning oqilona taqsimlanishi va maqsadli ishlatalishi davlat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda va fuqarolarning hayot sifatini

² U.Y.O‘roqov. Mahalliy budgetlar shaffofligi va ochiqligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari. Biznes-Ekspert jurnali, 2020 y. 4-son.

³ Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. darslik “Iqtisodiyot nazariyasи” Toshkent-2020 y. 14 b.

yaxshilashda asosiy o‘rinni egallaydi. Davlat budjeti mablag‘larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismini, ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki budgetning daromadlari va xarajatlari o‘zaro bir-birini taqozo etadi, uni to‘liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Budget siyosatining asosiy yo‘nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash va respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida, davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini arkazlashtirishdan iboratdir. Respublikamizda budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijroetish, budgetdan mablag‘ bilan ta’minlashni takomillashtirish hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta’minlash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budget jarayonlarida, jumladan, budget ijrosini qa’tiy ta’minlashda budgetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, budget mablag‘laridan maqsadli, samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Budget jarayonini mavjud qonunchilik asosida, budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budgetdan mablag‘ bilan ta’minlashni takomillashtirish hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta’minlash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budget mablag‘laridan foydalanishda ko‘plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar davlat resurslarining samarasiz taqsimlanishi, noto‘g‘ri boshqarilishi yoki korrupsiyaga yo‘l qo‘yilishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Quyida budget mablag‘laridan foydalanishda uchraydigan asosiy muammolar keltirib o‘tdik (1-jadval):

1-jadval

Budget mablag‘laridan foydalanishda uchraydigan asosiy muammolar⁴

Muammolar	Muammo turlari	Izohi
	Davlat idoralari xarajatlari ustidan	Fuqarolar va nodavlat tashkilotlari budget mablag‘larining sarflanishi jarayonini

⁴ Internetdagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shaffoflik va ochiqlikning yetishmasligi	nazoratning zaifligi	kuzata olmaydi, bu esa korrupsiya xavfini oshiradi.
	Jamoatchilik ishonchining pasayishi	Shaffoflikning pastligi fuqarolarda davlat tomonidan mablag‘larni noto‘g‘ri boshqarilayotgani haqidagi shubhalarni kuchaytiradi.
Korrupsiya	Davlat xaridlarida korrupsiya	Davlat xaridlarida mablag‘lar noto‘g‘ri tender va shartnomalar orqali o‘zlashtiriladi yoki maqsadsiz sarflanadi. Bu holat mablag‘larning samarasiz ishlatalishiga olib keladi.
	Mansabdor shaxslarning suiiste'moli	Korrupsioner amaldorlar mablag‘larni noqonuniy yo‘llar bilan o‘zlashtirishi yoki shaxsiy manfaati uchun sarflashi mumkin.
Resurslarning samarasiz taqsimlanishi	Noto‘g‘ri rejalahtirish	Budget mablag‘larining to‘g‘ri taqsimlanmasligi natijasida resurslar kerakli joylarga emas, balki kam samarali sohalarga ajratiladi.
	Ortib qolgan yoki ortiqcha xarajatlar	Mablag‘lar haddan tashqari ko‘p sarflanadi yoki noto‘g‘ri sohalarga ajratiladi, bu esa davlat byudjeti samaradorligini pasaytiradi.
Nazorat va hisobot berishning zaifligi	Moliyaviy nazorat zaifligi	Budget mablag‘larining qanday va qayerga sarflanganini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada ishlamaydi.
	Audit tizimining samarasizligi	Davlatning ichki yoki tashqi auditorlik jarayonlarining kuchsizligi natijasida mablag‘lar samarasiz sarflangan bo‘lsa ham, buning oldi olinmaydi.
Natijaga yo‘naltirilmagan budjetlashtirish	Davlat dasturlarining samaradorligini o‘lchashdagi muammolar	Budget mablag‘lari natijaviylik emas, balki resurslar qanchalik ishlataliganiga asoslangan holda sarflanadi.
	Harajatlar samaradorligining nazorat qilinmasligi	Xarajatlarning qanday natijalar bergenini baholash va tahlil qilish mexanizmlarining yo‘qligi mablag‘larni samarasiz sarflash xavfini oshiradi.
Mahalliy byudjetlarning yetarli emasligi	Hududiy tengsizlik	Ba’zi hududlar yetarli budjet mablag‘lariga ega emasligi sababli ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda orqada qoladi.
	Mahalliy loyihalarning moliyaviy qiyinchiliklari	Mahalliy darajadagi infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa xizmatlar uchun mablag‘ yetishmasligi ushbu sohalarning zaiflashishiga olib keladi.

Davlat xaridlarida tenderlarning samarasizligi	Tender jarayonidagi oshkoralikning yo‘qligi	Yopiq tenderlar orqali mablag‘lar noto‘g‘ri kompaniyalarga berilishi mumkin, bu esa davlat manfaatlariga ziddir.
	Raqobatning pastligi	Davlat xaridlarida raqobat yetarli darajada ta'minlanmagani tufayli mablag‘lar iqtisodiy jihatdan samarasiz ishlatalishi mumkin.

Budget mablag‘laridan foydalanishda yuqoridagi muammolar davlatning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun shaffoflikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, samaradorlikni ta’minalash va davlat nazoratini mustahkamlash talab etiladi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham budget mablag‘larining samarali boshqarilishiga yordam beradi.

Budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish davlatning iqtisodiy samaradorligini oshirish, korrupsiyani kamaytirish va fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta’minalashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi yo‘llar orqali budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish mumkin:

a) Shaffoflikni oshirish:

Shaffoflikning yuqori darajasi budget mablag‘larining to‘g‘ri ishlatalishini ta’minalaydi va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi. Quyidagi choralar orqali shaffoflikni oshirish mumkin:

- Budget jarayonini ochiq qilish: Fuqarolar va nodavlat tashkilotlar budgetni shakllantirish va uning xarajatlari ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Davlat idoralari o‘z xarajatlari haqida muntazam ravishda hisobot berishi lozim.

- Onlayn platformalar joriy qilish: Budget mablag‘larining qanday taqsimlanishi va sarflanishi haqidagi ma'lumotlarni onlayn rejimda kuzatish imkonini beradigan platformalar yaratish lozim. Bu orqali fuqarolar va ommaviy axborot vositalari budget xarajatlarini nazorat qilishi mumkin.

b) Korrupsiyaga qarshi kurash:

Korrupsiya budget mablag‘larining noto‘g‘ri sarflanishiga va samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi mumkin:

- Davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash: Elektron davlat xaridlari tizimi orqali barcha davlat xaridlarini ochiq va oshkora o‘tkazish. Bu tizim korrupsiyani kamaytiradi va adolatli raqobatni ta'minlaydi.

- Davlat nazorat organlarini mustahkamlash: Budget mablag‘larining taqsimlanishi va sarflanishi ustidan mustaqil va samarali davlat nazorati tashkil etilishi kerak.

d) Samaradorlikni oshirish:

Budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish lozim:

- Natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish: Budget mablag‘lari taqsimotini natijaga erishish bo‘yicha rejalashtirish lozim. Har bir davlat dasturi va loyihasining aniq maqsad va ko‘rsatkichlari belgilanishi kerak. Shu orqali har bir mablag‘ning qanday samara bergani tahlil qilinadi.

- Resurslardan samarali foydalanish: Budget mablag‘larini boshqarish jarayonida ortiqcha va keraksiz xarajatlarning oldini olish uchun tizimli tahlil o‘tkazilishi kerak.

e) Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish:

Budget mablag‘larining shaffofligi va samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Masalan:

- Blokcheyn texnologiyasi orqali budget mablag‘larining har bir harakatini kuzatib borish va ularni nazorat qilish. Bu texnologiya mablag‘lar sarflanishini ochiq qilish va ularning noqonuniy yo‘llar bilan yo‘qolishini oldini olishda foydali.

- Sun‘iy intellekt va tahlil vositalari: Budget mablag‘larini prognozlash va samaradorlikni o‘lchash uchun sun‘iy intellekt va tahlil vositalarini qo‘llash mablag‘lar boshqaruvidagi xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

Budget mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jamiyat farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shaffoflikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurash, samaradorlikni ko‘tarish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali budget mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatalishini

ta'minlash mumkin. Shu yo'llar orqali davlat resurslari oqilona boshqariladi va ijtimoiy dasturlar yanada samarali amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak, budget mablag'laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Samarali boshqaruv tizimi, shaffoflik va ochiqlik, korrupsiyaga qarshi kurash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi choralar bu sohadagi muammolarni hal etishda asosiy omillar hisoblanadi. Shaffoflikni oshirish orqali fuqarolarning davlat mablag'lari ustidan nazorat qilish imkoniyatini kengaytirish va korrupsiyaga qarshi samarali choralar ko'rish budget mablag'larining noto'g'ri ishlatalishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xaridlari jarayonlarini adolatli va shaffof amalga oshirish, tender tizimini takomillashtirish orqali mablag'larni oqilona taqsimlash imkoniyatlari yaratiladi. Natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tizimining joriy qilinishi har bir mablag'ning samaradorligini oshiradi va davlat dasturlarining real natijalarini baholash imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan blokcheyn, Big Data va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar budget mablag'lari ustidan nazoratni kuchaytirish va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim vositalar sifatida qo'llanilishi mumkin. Fuqarolarning budget jarayonlariga jalb qilinishi, jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi esa davlat va jamoatchilik o'rtasida ishonchni oshiradi. Umuman olganda, budget mablag'laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish natijasida mablag'larning samarali va maqsadli ishlatalishi ta'minlanib, davlat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va jamiyatning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 2013-yil 26-dekabrdagi 360-sonli qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-dekabrdagi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida" O'RQ-885-sonli Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli Qonuni

5. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi №O‘RQ-812-sonli Qonuni

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli Qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkainasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi ‘Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-100-sonli Farmoni

9. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O‘quv qo‘llanma.T.:“Iqtisod-moliya” 2008 y. 316 b.

10. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. darslik “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent-2020 y. 14 b.

11. Malikov T.S. “Byudjet-soliq siyosati” T.: “Iqtisod-moliya” 2019 y.

12. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.

13. Жуманиязов, И. Т. (2016). Направления использования средств Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. Economics, (7 (16)), 28-29.

14. Jumaniyazov, I. T. (2022). O‘zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. Science and Education, 3(5), 1637-1645.

15. Ibragimov, A., & Xolmo‘Minov, J. U. (2023). Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘laridan foydalanishning nazorat tizimini takomillashtirish masalalari. Science and Education, 4(5), 1289-1300.

16. Xazratqulov, Y. R., Abdunaimova, I. Z., Xazratova, L. A., Qahramonov, Q. Q., & Burxonova, M. T. (2022). Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratni takomillashtirish. Science and Education, 3(11), 1171-1181.

17. U.Y.O‘roqov. Mahalliy budjetlar shaffofligi va ochiqligini ta’minalashning ustuvor yo‘nalishlari. Biznes-Ekspert jurnali, 2020 y. 4-son.

18. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. darslik “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent-2020 y. 14 b.

19. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

20. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

21. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

22. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti